

Date: 13th April-2026

O'QUV AMALIYOTI MASHG'ULOTLARIDA KIYIM TURLARI VA UNI
TIKISH TEXNOLOGIYASINI O'RGATISH

Razzakova Manzura Fazliddin qizi

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar
uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum

“Tikuvchilik” yo‘nalishi ishlab chiqarish ta’limi ustasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Tikuvchi” va “Modelyer-konstruktorlik” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga o‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida kiyim turlarini o‘rgatish tizimi, tikish texnologiyasi va mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kiyim, tur, buyum, ko‘rpa, texnologiya, moda, klassifikatsiya, ko‘ylak, yubka, estetik, gigiyenik, texnik, talab, mashg‘ulot, tikuv mashinasi.

Bugungi kunda moda sanoati jadal rivojlanib, turli kiyim turlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi talablari murakkablashmoqda. Bu jarayonda mutaxassislar nafaqat zamonaviy dizayn, balki sifatli texnologik bilimlarga ham ega bo‘lishi talab etiladi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlari o‘quvchilarga nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitida qo‘llash, kiyim konstruksiyasi va uning texnologik jarayonlarini chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘quv amaliyoti – bu ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarni nazariy bilimlardan amaliy ko‘nikmalarga o‘tkazish jarayonidir. Ayniqsa, tikuvchilik va moda texnologiyalari sohasida amaliyot o‘quvchi uchun muhim o‘rin tutadi. O‘quv amaliyotining asosiy pedagogik maqsadi quyidagilardan iborat: O‘quvchilarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish:

- Kiyim turlari bo‘yicha aniq texnologik jarayonlarni chuqur o‘zlashtirish;
- Amaliy mashg‘ulotlarda ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish;
- Ish joyida xavfsizlik talablariga amal qilish hamda sifatni nazorat qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

O‘quv amaliyoti jarayonida o‘quvchilar model tanlash, tanlangan modelga asos konstruksiyasini chizish, o‘lcham tizimi va andozalar tayyorlash bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash, turli mato turlari va ularning xususiyatlarini o‘rganish,

tikish mashinalaridan samarali foydalanish, yakuniy mahsulot sifatini baholash va takomillashtirish kabi bilimlarga ega bo‘lishlari lozim.

O‘quv amaliyotining asosiy vazifalari

No	Vazifalar	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Nazariy bilimni mustahkamlash	Kiyim konstruksiyasi va texnologiyasini o‘rganish	Amaliy qo‘llash ko‘nikmasi



Date: 13th April-2026

2	Texnologik jarayonni o'zlashtirish	Kesish, tikish, pardoqlash	Mustaqil mahsulot tayyorlash
3	Xavfsizlik qoidalari	Texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish	Xavfsiz ish muhiti
4	Sifat nazorati	Tikuv sifati va aniqligini baholash	Raqobatbardosh mahsulot

Kiyim – inson tanasini qoplash, himoya qilish va bezash funksiyalarini bajaruvchi mahsulotdir. U dizayn, konstruksiya va texnologik talablar bo'yicha tasniflanadi. Quyida asosiy kiyim turlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kundalik kiyimlar – har kuni kiyiladigan, qulaylik va funktsionallikka asoslangan mahsulotlardir. Bu turga ko'ylak, shim, futbolka, bluzka va boshqa oddiy tasnifga kiruvchi buyumlar kiradi. Ularning tikilishi oddiyroq bo'lib, ko'p hollarda standart naqshlardan foydalaniladi.

Rasmiy kiyimlar – tadbir, ish joyi yoki marosim uchun mo'ljallangan mahsulotlardir. Erkaklar uchun kostyum, galstuk, ayollar uchun ko'ylak, yubka, blazer kabi buyumlar kiradi. Bu turdagi kiyimlarda detal soni ko'p bo'lishi va aniq texnologik jarayonlarga amal qilish talab etiladi.

Sport kiyimlari jismoniy faollik vaqtida qulaylik va ergonomikani ta'minlashga yo'naltirilgan. Matolar elastik, nafas oluvchi va namlikni tez shimdiruvchi bo'lishi kerak. Sport kiyimini loyihalashda va tikishda funktsional bo'linmalarni hisobga olish zarur.

Maxsus kiyimlar – ma'lum bir kasb yoki sharoit uchun mo'ljallangan himoya vositalaridir. Misol uchun, tikuvchilar o'quv amaliyotida ishlab chiqarishdagi shaxsiy himoya vositalari, tibbiyot yoki sport uchun maxsus kiyimlar bilan tanishadilar. Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum "Tikuvchi" va "Modelyer-konstruktorlik" ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchilarga o'quv amaliyoti mashg'ulotlarida yuqorida sanab o'tilgan kiyim turlari haqida ma'lumot beriladi va eng ko'p tikiladigan kiyim assortimentlarini tikish bosqichlari o'rgatiladi.

Kiyim ishlab chiqarish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Model yaratish va konstruksiyasini tuzish;
- Gazlamalarni bichishga tayyorlash;
- Gazlamalarni bichish;
- Buyum tikish;
- Buyumni pardoqlash.

Bu bosqichlarni o'quv amaliyotida takroriy ravishda bajarish o'quvchilar qo'l mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotda ularning har bir qadamga nisbatan nazariy va amaliy bilimlari mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv amaliyoti mashg'ulotlarida kiyim turlari va uni tikish texnologiyasini o'rgatish o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy jarayonda qo'llash imkonini beradi. Bu jarayonda konstruksiya yaratish, andoza tayyorlash, turli tikuv



Date: 13th April-2026

mashinalarini to'g'ri ishlatish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish va yakuniy mahsulotni sifatli bajarish muhim o'rin tutadi. Samarali o'quv amaliyoti – kelajakda malakali mutaxassislarni tayyorlashning asosiy omili bo'lib, u metodik tizim, baholash mexanizmlari va pedagogik yondashuvlar orqali mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
2. Rahimov B. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Rasulova M. Kiyim konstruksiyasi va modellashtirish. – T: O'qituvchi, 2018.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Kasbiy ta'lim DTS. – Toshkent, 2020.

